



# Xalq so'zi

O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2023-YIL — INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan • WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz • 2023-yil 26-sentabr, № 201 (8544)

Seshanba Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



## TEMIR YO'L SOHASINI ISLOH QILISH BO'YICHA TAKLIFLAR KO'RIB CHIQUILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 25-sentabr kuni temir yo'l sohasini isloh qilish bo'yicha ustuvor vazifalar muhokamasini yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.

So'nggi yetti yilda mamlakatimizda sanoat korxonalarini ko'paytirish, 110 mingtaga yetdi. 2 mingdan ziyod yangi mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Eksport hajmi 1,6 barobar oshib, o'tgan yili 19 milliard dollarga yetdi. Bularning natijasida mamlakatimizda yul aylanmasi 30 foizga oshgan.

Ma'lumki, O'zbekiston kabi dunyo okeanlariga to'g'ri-dan-to'g'ri chiqish imkoni yo'q mamlakatlar uchun eng qulay va arzon transport bo'limi yo'l hisoblanadi. Lekin hozir ichki bozorda mahsulotning atigi 5 foizi, eksportda esa 45 foizi poyezdda tashiyapti. Ya'ni "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati avtomobilida yuk tashishga raqobat qila olmayapti.

Chunki soha uzoq yillar isloh qilinmadi, zamonaviy boshqaruv tizimi joriy etilmadi. Shu bilan birga, xalqaro maydondagi vaziyat hisobiga transport-logistika xarajatlari ham oshgan. Oqibatda jamiyatning daromadi ham, xizmatlar sifati ham past bo'lib qolmoqda.

Jumladan, vagonlar yetishmovchiligi va ularning ko'plari eskirganligi aytilib o'tildi. Hozirgi tariflar va boshqaruv tizimi bilan sohaga xususiy sektor kirishi qiyin. Aksariyat stansiyalarning daromadi o'z xarajatini qoplamaydi. Raqamlashtirish darajasi pastligicha qolyapti. Vokzallarda savdo va servis lozim darajada yo'lga qo'yilmagan. Xavfsizlik vaji bilan markaziy vokzallarga kirib-chiqish imkoniyati cheklangan. Avtoturargohlar uzoq joylashgani, chipta sotishdagi korupsiya, vagonlardagi sharoit va xizmatdan aholi norozi.

Shular qayd etilar ekan, yig'ilishda sohani isloh qilish bo'yicha takliflar muhokama qilindi.

Unga ko'ra, "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatini xoldingga aylantirib, zamonaviy boshqaruvni joriy qilish, infratuzilma, yuk vagonlari va logistika, yo'lovchi tashish xizmatlari hamda vokzallar boshqaruvini bir-biridan ajratib, alohida korxonalar tashkil qilish mo'ljallanmoqda.

Davlatimiz rahbari bu takliflarni

ma'qullab, sohadagi samaradorlikni oshirish bo'yicha qo'shimcha ko'rsatmalar berdi. Buxgalleriyani shaffof qilib, korxonalariga davlat kafolatsiz investitsiyalar va xorijiy ekspertlarni jalb etish zarurligi ta'kidlandi.

Sohada xususiy sektor uchun jozibador tariflar shakllantirilib, tadbirkorlarning vagon sotib olishi uchun kreditlar ajratilishi belgilandi. Shuningdek, markaziy vokzallar atrofida zamonaviy savdo majmualari qurish mumkin bo'ladi, vokzallardagi joylar ijara uchun auksionga chiqariladi. Temir yo'l stansiyalari atrofida bo'xish joylar aniqlanib, logistika xizmatlari va ishlab chiqarish loyihalari joylashtiriladi.

Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan birgalikda "yagona darcha" tamoyili orqali yuk hujjatlarini elektron rasmiylashtirish, vagonlarga GPS o'rnatish va onlayn ombor axborot tizimini ishga tushirish vazifasi qo'yildi.

"O'zbekiston temir yo'llari"ning nosohaviy aktivlarini qayta ko'rib chiqish, ularni sotishdan tushgan mablag'larni temir yo'l infratuzilmasini yaxshilashga yo'naltirish muhimligi ta'kidlandi.

Poyezdlarning katta qismi poytaxt va viloyat markazlariga kirib kelishi oqibatida stansiyalarda tirbandlik yuqori bo'layotgani ko'rsatib o'tildi. Shu bois yuk stansiyalarini shaharlardan tashqariga ko'chirish imkoniyatini o'rganish zarurligi qayd etildi. Bu shaharlarda yuk mashinalari harakati kamayishiga, tumanlarga qo'shimcha investitsiya kirishiga xizmat qiladi.

Transport prokuroriga barcha temir yo'l kesishmalarini tartibga olib, fuqarolar va harakat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ko'rsatma berildi.

Xodimlar malakasi, xizmatlar sifati masalalariga ham o'xtalib o'tildi. Davlatimiz rahbari sohadagi islohotlar orqali aholi va tadbirkorlarni rozi qiladigan tizim yaratish zarurligini ta'kidlandi.

Mutasaddilar yig'ilishda muhokama qilingan masalalar yuzasidan axborot berdi.

O'ZA.

## OCHIQ VA KONSTRUKTIV MULOQOT HAR QACHONGIDAN HAM MUHIM

Nyu-York shahridagi BMT bosh qarorgohida Bosh Assambleya 78-sessiyasining umumsiyosiy munozaralari bo'lib o'tdi va unda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so'zlad. Davlatimiz rahbari global va mintaqaviy kun tartibidagi eng dolzarb masalalar yechimiga qaratilgan qator tashabbuslarni ilgari surdi.

Dunyoda ishonch hamda o'zaro bir-birini tushunish taqchilligi sezilayotgan, qararni qarama-qarshiliklar va mojarolar kuzatilyotgan bugungi sharoitda barqarorlik va xavfsizlikka nisbatan ko'plab tahdidlar kuchaydi. Iqlim o'zgarishi, suv hamda tabiiy resurslarning yetishmasligi, pandemiyaning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari, energetika va oziq-ovqat xavfsizligi inqirozi kabi zamonamiz muammolari barqaror rivojlanish uchun jiddiy xavf tug'dirmoqda.

Prezidentimiz ta'bir bilan aytganda, o'zaro ishonch, adolat va hamjihatlikka talab global miqyosda tobora ortib, shu munosabat bilan ochiq va konstruktiv muloqotni davom ettirish har qachongidan ham ko'proq talab qilinmoqda.

Bundan tashqari, radikalizmning o'sib borishi xavfli tendensiyaga aylanmoqda. Yoshlarning ekstremistik tashkilotlarga jalb etilishiga yo'l qo'ymaslik, turli nosog'lom mafkuralarga qarshi barqaror immunitetni shakllantirish bo'yicha kompleks amaliy chora-tadbirlar qabul qilinishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ko'p jihattan allaqachon zamonaviy hayotni belgilayotgan xavfsiz axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratish lozim.

Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha Milliy strategiya doirasida bir masalaga muhim ahamiyat berildi, u ham bo'lsa, ilgari ekstremizm g'oyalari ta'sirida bo'lgan shaxslarni sog'lom hayotga qaytarish va jamiyatga moslashtirish masalasidir. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan shu davrgacha besh marta "Mehri" insonparvarlik missiyasi o'tkazildi. Uning doirasida 530 dan ziyod fuqarolar, avvalo,

ayollar va bolalar Yaqin Sharqdagi qurolli nizolar hududlaridan yurtimizga qaytarildi. Ularning barchasiga tibbiy, psixologik, ijtimoiy va boshqa yordamlar ko'rsatildi.

Prezident ta'kidlaganidek, BMTga a'zo davlatlar xalqaro terrorizm kabi umumiy tahdidlarga qarshi kurashda yanada birlashib, harakat qilishlari kerak. Shu o'rinda xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvida faol ishtirok etishi bugungi kunning dolzarb masalasi. Milliy siyosatimiz markazida turadigan eng ezgu maqsad — oilalar mustahkamligini, ayollar va bolalarimizning huquqiy himoyasi va osoyishta hayotini ta'minlashdan iborat.

Jamiyatimizda davlat rahbarining alohida tashabbus va e'tibori bilan xotin-qizlarga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Yurtimizda xotin-qizlarning o'z iqtidorini namoyon qilishi, qobiliyatiga yarasha ishlashi uchun barcha sharoit mavjud. Ayniqsa, ularni o'qitish, bilimni oshirish, kasbga o'rgatish orqali jamiyatda iqtisodiy erkinlikka erishishini ta'minlash ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda.

Davlatimiz rahbari Afg'oniston masalasiga ham alohida o'xtaladi. Afg'oniston o'z muammolari bilan yana yo'lga qoldirish — bu katta xato ekanligini qayd etdi. Inkor qilish, yakkalab qo'yish va sanksiyalar qo'llash oddiy afg'on xalqining ahvolini yanada og'irlashtiradi. Shu ma'noda, Prezident dunyo hamjamiyatini Afg'oniston muammosini hal etish yo'lida birlashishga va bu borada BMT rahnamoligida Afg'oniston bo'yicha birgalikda ishlab chiqilgan, vaziyatga moslashuvchan hamda konstruktiv pozitsiyani belgilashga chaqirdi.



## Aks sado

## HECH KIM O'Z DARDI BILAN YOLG'IZ QOLMASIN

Dunyo kun sayin shiddat bilan o'zgarimoqda. Bir yoqda ekologik bo'hronlar, global iqlim o'zgarishlari, boshqa tomonda geosiyosiy ziddiyatlar, uchinchi tomonda diniy toqatsizlik ko'rinishlari avj olib, o'zaro nizolar kuchayib borayotgan bir sharoitda mamlakatlarning barqaror rivojlanishi nihoyatda qiyin tus oldi.



Eng achinarlisi, urush o'chog'iga aylangan, qurolli to'qnashuvlar kuzatilyotgan, ichki muammolariga o'rashlab, o'z dardi bilan yolg'iz qolayotgan mamlakatlarda, asosan, tinch aholi jabr ko'rmoqda. Bu hududlarda ta'lim tizimi izdan chiqqani, odamlar, ayniqsa, bolalar ochildan azob chekayotganini hech bir bahona-yu sabab bilan oqlab bo'lmaydi. Shu bois tinch va barqaror rivojlanish yo'lidan borayotgan davlatlarning chin vazifasi ularni yordam qo'lini cho'zish, o'zaro murosa yo'lini topishda beg'araz ko'maklashish bo'lib qolayotir.

Allaqqachon insoniyat uchun hayotiy da'vatga aylalib ulgurgan bu qarashlarni

ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat yuritishiga keskin to'siq bo'layotgani hech kimga sir emas. Buni ham qo'ya turaylik, jafokash afg'on xalqining qariyb yarim asrdan buyon mudom talato'plar orasida yashayotgani-chi? Necha-necha avlodlar bu dunyoni faqat qo'rquv va urush alangasi sifatida ko'rib ulg'aydi. Onalar farzandi ochildan yoki daydi o'qdan o'lmasin uchun, ularni yot begonalarga sotishga majbur bo'lmoqda.

O'zbekiston Prezidenti BMT minbarida yana bir bor afg'on masalasi ko'targani zamirida ana shunday ayanchli manzaraga chiroyli nuqta qo'yish maqsadi bor. Qolaversa, xalqaro minbarlarda har safar bu masalaga takror va takror e'tibor qaratayotgan Shavkat Mirziyoyev yangi va tub islohotlarga muhtoj bugungi dunyoviy munosabatlarga yangi qarashlarini aks ettirdi.

"Afg'onistonni o'z muammolari bilan yana yolg'iz qoldirish — bu katta xato bo'ladi", dedi va nima uchun shundayligini ham izohlab o'tdi.

Unga ko'ra, birinchidan, zamonaviy dunyoda vaqt va masofa bilmaydigan ziddiyatli to'qnashuvlar, qurolli mojarolar xalqaro xavfsizlikka bir zumda ta'sir qilmasdan qolmayapti. Shunday ekan, Afg'onistonda yuzaga kelgan yangi vaziyat bu mamlakatda tinch va barqaror muhitni tiklash uchun qulay imkoniyatdir.



## Senat yalpi majlisi oldidan

## MASALALAR DASTLABKI TARZDA CHUQUR TAHLILDAN O'TKAZILDI

Oliy Majlis Senatining navbatdagi yalpi majlisida bir qator qonunlar hamda boshqa dolzarb masalalar ko'rib chiqilishi rejalashtirilgan. Kecha o'tkazilgan parlament yuqori palatasi qo'mitalari yig'ilishlarida mazkur masalalar dastlabki tarzda muhokamadan o'tkazildi.

O'ta og'ir jinoyat sodir etmagan o'spirinlar hayotini qaytadan boshlashga imkoniyat beriladi

Yoshlar, madaniyat va sport masalalariga qo'mitajlisida "Voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoyat mavobgarlik yanada liberalashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun muhokama qilindi.

"2022 — 2026-yillariga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatsiz ta'lim yili" da amalga oshirishga doir davlat dasturida belgilangan vazifalar jrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan mazkur hujjat bilan o'n sakkiz

yoshga to'lguniga qadar sodir etgan o'ta og'ir bo'lmagan jinoyati uchun jazoni o'tab bo'lgan shaxs sudlanmagan deb hisoblanishi belgilanmoqda. Shuningdek, qonunda voyaga yetmaganlarga nisbatan ozodlikni cheklashning hamda ozodlikdan mahrum qilishning eng kam muddati olti oydan bir oygacha qisqartirilishi nazarda tutilyapti.

Ushbu qonun voyaga yetmaganlarning jinoyi javobgarligini yanada liberalashtirishga xizmat qiladi va o'n sakkiz yoshga to'lguniga qadar sodir etgan jinoyati uchun jazoni o'tab bo'lgan shaxsga hayotini sudlanganlik tamgasidan xoli tarzda davom ettirishi uchun sharoit yaratadi.

Statistik raqamlarga ko'ra, mamlakatimizda 2021-yilda 1 ming 472 nafar voyaga yetmagan shaxs sudlangan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 2 ming

116 nafarga yetgan. O'tgan 2022-yilda ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar 389 ta, uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar soni esa 510 tani tashkil qilgan.

Mazkur hujjatning ma'qullanishi yuzlab yoshlarga hayotini qaytadan boshlash, jamiyatda o'z o'rnini topish, oilasiga, mahallasiga, jamiyatga foyda keltiradigan inson bo'lib kamolga yetishiga imkon beradi.

Soliq, byudjet va yer to'g'risidagi normalar takomillashtirilmoqda

Senatning Byudjet va iqtisodiy islohotlar masalalariga qo'mitajlisida "Soliq va byudjet qonunchiligi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun ko'rib chiqildi.



## Qonunchilik palatasi fraksiyalarida

## PARLAMENT VAKOLATLARI KONSTITUTSIYAMIZGA MUVOFIQLASHTIRILMOQDA

Kecha siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi.

Ularda dastlab o'tgan haftadagi muhim siyosiy voqealar — O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Amerika Qo'shma Shtatlariga tashrifi, BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida so'zlangan nutqi, tadbir doirasida AQSH va Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchilari sammitida ishtirok, xorijiy davlatlar, nufuzli xalqaro tashkilotlar rahbarlari bilan o'tkazgan uchrashuvlarining ahamiyati haqida batafsil to'xtalib o'tildi. Mamlakatimiz xalqaro munosabatlarda faol tashqi siyosatni yo'lga qo'yayotgani va bu xalqaro hamjamiyat tomonidan keng

e'tirof etilayotgani ta'kidlandi. Davlatimiz rahbarining tarixiy nutqida ilgari surilgan taklif va tashabbuslardan kelib chiqib, partiyalar, ularning fraksiyalarida turgan dolzarb vazifalar belgilab olindi.

Fraksiyalar yig'ilishlarida, shuningdek, parlament quyi palatasining navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilgan bir qator qonun loyihalari ham mufassal ko'rib chiqildi. "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi qizg'in muhokamalarga sabab bo'lgan hujjatlardan biri bo'ldi.



## Sessiya

Kuz-qish mavsumi:

## AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR MUHOKAMASI

Xalq deputatlari Navoiy shahar Kengashining navbatdagi sessiyasi bo'lib o'tdi. Unda deputatlar tomonidan kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar, aholi va ijtimoiy soha obyektlarini "yashil" energiya resurslari bilan barqaror ta'minlash masalalarini muhokama qilindi.

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan Navoiy shahar hokimi D. Ergashev hamda hokimning birinchi o'rinbosari O'. Haqberdiyevning hisobotlari eshitildi.

Hisobotlarda shaharda ko'p qavatli uy-joy fondini kuz-qish mavsumiga tayyorlash maqsadida 78 ta ko'p qavatli uyda ta'mirlash ishlari amalga oshirilgani, 34 ta ko'p qavatli uy-joyning 46 ming kv. metr tom qismi, 37 tasining yerto'la qismidagi muhandislik tarmoqlari, 11 tasining esa fasad qismi ta'mirlangani haqida axborot berildi. Bundan tashqari, aholi va ulgurji elektromolchilarni uzluksiz elektr energiya bilan ta'minlash maqsadida uchta mahalla fuqarolar yig'iniga 15,8 km. elektr tarmog'i tortilgan. Shuningdek, elektr uzatish tarmog'i tayanchlari yangisiga almashirilib, aholining elektr energiyaga bo'lgan talabi kundan-kunga ortib borayotgani inobatga olingan holda yangi transformatorlar o'rnatilgan.



## Yig'ilish

## TURKIY DAVLATLAR KASABA UYUSHMALARI TASHKILOTI TA'SIS ETILDI

Samarqand shahridagi "Buyuk Ipak yo'li" xalqaro turizm markazi hududidagi kongress-xollida Turkiy davlatlar kasaba uyushmalari tashkilotining ta'sis yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Uni O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisi, senator Quddratilla Rafiqov ochdi.

Anjumanda O'zbekiston, Turkiya, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston kasaba uyushmalari rahbarlari, Oliy Majlis Senati a'zolari va Qonunchilik palatasi deputatlari, mamlakatimizning taniqli siyosatchi va ziyolilari, jamoatchilik va ilm-fan namoyandalari, shuningdek, Kasaba uyushmalari Federatsiyasi hududiy kengashlari rahbarlari ishtirok etdi.

Ta'kidlaganidek, mazkur anjuman qatnashchilarini, umuman, xalqlarimizni juda katta va uzoq o'tmish, bebaho umumimur birlashtirib turadi. Keyingi yillarda turkiy davlatlar o'rtasidagi aloqlar yanada mustahkamlanib bormoqda. Xususan, o'tgan yili Samarqand shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar tashkiloti sammiti turkiy dunyoni yanada yaqinlashtirish va ulkan salohiyatini to'liq ishga solishda muhim rol o'ynadi.

Turkiy davlatlar kasaba uyushmalari tashkilotining ta'sis yig'ilishida ana shu umumiy tarixni hamda bugungi davrdagi o'zaro aloqlarni o'zida aks ettirgan videorolik namoyish qilindi.



## Osiyo o'yinlari



## SPORTCHILARIMIZ VATAN SHARAFINI YUKSALTIRMOQDA

Shu kunlarda Xitoyda XIX yozgi Osiyo o'yinlari bo'lib o'tayotir. Qit'aminning mazkur nufuzli musobaqasida 350 nafardan ortiq o'zbekistonlik sportchilar sovrinli o'rinlar uchun bellashmoqda. Hamyurtlarimiz qo'liga kiritayotgan yutuqlar haqida Xanchjou shahridan muxbirimiz xabar qiladi.

Avvalo shuni ta'kidlash joizki, ushbu bellashuvlarda atletlar 40 ta sport turining 61 yo'nalishida nafaqat medallar, balki kelgusi yili Parijda o'tkaziladigan navbatdagi yozgi Olimpiada o'yinlari yo'llanmalari uchun ham kurash olib borishmoqda. Ayni shu jihat har bir bellashuvning murosasiz o'tishini ta'minlayapti.

23-sentabr kuni Xanchjou shahrida XIX yozgi Osiyo o'yinlarining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Unda dzyudo bo'yicha jahon chempioni Muzaffarbek To'rayboev hamda qilichbozlik bo'yicha yoshlar o'rtasida jahon chempionati sovrindori, Osiyo chempioni Zaynab Dayibekova

O'zbekiston bayrog'ini maydondan olib o'tdi. XIX yozgi Osiyo o'yinlarida dastlab bellashuvlarni futbolchilarimiz boshlab berdi. Temur Kapadze bosh murabbiyligidagi O'zbekiston olimpiya terma jamoasi gonkonglik tengqurlariga qarshi ikki uchrashuvda bahs olib borib, 1:0 va 2:1 hisobida g'alabaga erishdi. Endi vakillarimiz 1/8 finalda Indoneziya olimpiya terma jamoasi bilan bellashadi.



## Videolavhada ko'ring



# HECH KIM O'Z DARDI BILAN YOLG'IZ QOLMASIN



## OCHIQ VA KONSTRUKTIV MULOQOT HAR QACHONGIDAN HAM MUHIM

Shuningdek, davlatimiz rahbari nufuzli minbardan turib Afg'onistonning muvaffaqiyatli xalqaro aktivlarini bu yurtdagi o'tkir ijtimoiy muammolarni hal etishga yo'naltirish uchun maqbul mexanizmlarni ishlab chiqish taklifini olg'a surdi.

Bilamizki, o'zbek va afg'on xalqlari ming yillar davomida yonma-yon yashab keladi. Bizni madaniy, ma'naviy va tarixiy qadriyatlar, yaqona din va buyuk ajdodlarimizning merosi birlashtirib turadi.

Ta'kidlash kerakki, Amudaryoning narigi sohilida tinchlik bo'lmasa, O'zbekistonda va Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik va barqaror taraqqiyotga erishib bo'lmaydi. Shu bois ham Prezidentimizning tashabbusi bilan Toshkent shahrida 25-26-iyul kunlari "Afg'oniston: xavfsizlik va iqtisodiy taraqqiyot" mavzuida xalqaro konferensiya o'tkazildi.

Mazkur anjuman Afg'onistonda gumanitar inqirozning oldini olish bo'yicha keng ko'lami chora-tadbirlar ishlab chiqish, milliy iqtisodiyotni tiklashga ko'maklashish, ko'p millatli afg'on xalqi va butun dunyo manfaatli yo'lida ushbu mamlakatni mintaqaviy hamkorlik jarayoniga tortish maqsadida uyushtirilgan edi. Unda ilk bor Markaziy va Janubiy Osiyo, Yevropa, Amerika, Yaqin va O'rta Sharq, Osiyo — Tinch okeani mintaqalaridagi Afg'onistonda barqarorlikni tiklashga bevosita jalb etilgan yigirmadan ortiq davlatlarning Afg'oniston bo'yicha maxsus vakillari, o'nlab xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar rahbarlari, shuningdek, Afg'oniston Muvaqqat hukumati delegatsiyasi bir maydonda jam bo'lgan edi.

Bundan tashqari, davlatimiz rahbari Markaziy Osiyoning dunyoga ochiqligi — mintaqa xavfsizligi va barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan eng muhim shartga aylanmoqda, deya ta'kidladi. Xususan, tahdidlarga qarshi samarali kurashishni faqat birligida, mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi amaliy hamkorlik mexanizmlari doirasida ta'minlash mumkin. Xavfsizlikka tahdidlarni "o'ziniki va o'zgalarniki" deb ajratishdan voz kechish, "yaxlit xavfsizlik" tamoyiliga amalda rioya qilish zarur.

BMT mintaqaviy xavfsizlik muammosini, avvalo, preventiv diplomatiya usullaridan foydalangan holda hal qilishda muhim o'rin tutishi lozim. Shuningdek, MDO, SHO'T, YEXO'T va boshqa nufuzli xalqaro hamda mintaqaviy tuzilmalar mexanizmlari doirasida o'zaro hamkorlikni mustahkamlash davr talabidir. Prezidentimiz Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvida ham xavfsizlik masalalariga alohida e'tibor qaratdi. Unda davlat rahbari xavf-xatarlarga samarali qarshi turish imkoniyati ko'p qirrali sheriklikni chuqurlashtirishga qaratilgan qo'shma sa'y-harakatlarni birlashtirishga bog'liq, deya ta'kidladi.

Umuman olganda, O'zbekiston BMT institutlari va barcha davlatlar bilan keng ko'lami va uzoq muddatli sheriklikni chuqurlashtirishga tayyor. Bu esa har qanday soha taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

**Qutbiddin BURHONOV,**  
Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi.

Ikkinchidan, shundoq ham quvvatlangani Afg'onistondagi mavjud vaziyatni barqarorlashtirishga bo'lgan umid kurtaklarini uyg'otmoqda.

Dunyodagi vaziyat yana bir tomondan murakkablashib bormoqda. Bu diniy toqatsizlik, islomofobiya ko'rinishlarida aks etayotir.

BMTning Nyu-Yorkdagi bosh qarorgohida davlatimiz rahbari e'tiboridan bu muammo ham chetda qolmadi. So'nggi paytlarda ayrim mamlakatlarda ko'zga tashlanayotgan diniy toqatsizlik, islomofobiya holatlariga aslo yo'l qo'yib bo'lmagiligi qat'iy ta'kidlagan davlatimiz rahbari "Jahon miqyosida dinlararo bag'rikenglik va hamjihatlik g'oyalari keng targ'ib etish maqsadida O'zbekistonda YUNESKO shafeligida Dinlararo muloqot va bag'rikenglik xalqaro markazini tashkil etishni taklif qilamiz", dedi.

Bu taklif zamirida juda muhim hayotiy tutumlar o'rin olganini

siyosatchilar tomonidan ham qo'llab-quvvatlangani Afg'onistondagi mavjud vaziyatni barqarorlashtirishga bo'lgan umid kurtaklarini uyg'otmoqda.

Dunyodagi vaziyat yana bir tomondan murakkablashib bormoqda. Bu diniy toqatsizlik, islomofobiya ko'rinishlarida aks etayotir.

BMTning Nyu-Yorkdagi bosh qarorgohida davlatimiz rahbari e'tiboridan bu muammo ham chetda qolmadi. So'nggi paytlarda ayrim mamlakatlarda ko'zga tashlanayotgan diniy toqatsizlik, islomofobiya holatlariga aslo yo'l qo'yib bo'lmagiligi qat'iy ta'kidlagan davlatimiz rahbari "Jahon miqyosida dinlararo bag'rikenglik va hamjihatlik g'oyalari keng targ'ib etish maqsadida O'zbekistonda YUNESKO shafeligida Dinlararo muloqot va bag'rikenglik xalqaro markazini tashkil etishni taklif qilamiz", dedi.

Bu taklif zamirida juda muhim hayotiy tutumlar o'rin olganini

anglash qiyin emas. Boisi aynan diniy munosabatlarda ziddiyatli qarashlar boshqa illatlarga keng yo'l ochmoqda. Bular diniy ekstremizm, yoshlar radikalashuviga yo'l berilayotgani kabi ko'rinishlarda namoyon bo'la boshlaganiga ham ancha bo'ldi. Lekin hali ham kech emas. Chunki bugun bunday yovuz va bir tomonlama qarashlardan ko'z yumilsa, yoshlar ta'lim-tarbiyasi hamda intilishlari bilan qiziqmasak, ertaga vaziyat yanada chigallashga boshlaydi va butkul izdan chiqib ketadi.

Shu ma'noda, Prezidentimiz taklif qilgan YUNESKO shafeligida Dinlararo muloqot va bag'rikenglik xalqaro markazi jahon miqyosida dinlararo bag'rikenglik, hamjihatlik g'oyalari keng targ'ib etish maqsadlariga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Bu — masalaning bir tomoni. Ikkinchi muhim jihat — dinlararo bag'rikenglikni keng targ'ib etish. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, dunyodagi

hech bir din yovuzlikni, adolatsizlik va murosasizlikni targ'ib qilmaydi. Ularning barchasi, avvalo, insonlarni totuvlik va mehr-oqibat bilan yashashga undaydi.

Prezidentimiz BMT minbarida yana bir muhim qarashni ilgari surdi. Bu Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari o'rtasidagi munosabatlarning bugungi ko'rinishi bilan bog'liq.

"Markaziy Osiyoning dunyoga ochiqligi — mintaqa xavfsizligi va barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan eng muhim shartga aylanmoqda. Ishonch bilan aytish mumkin, bizning xalqlarimizni mintaqaviy o'ziga xoslikni anglash tuyg'usi birlashtirmoqda va bu tuyg'u tobora kuchayib bormoqda. Bizning nafaqat tariximiz, balki kelajagimiz, hayotiy muhim manfaatlarimiz ham umumiy va mushtarakdir. Mintaqaviy hamkorligimizni kengaytirishdan boshqa yo'limiz yo'q va bo'lishi ham mumkin emas", dedi davlatimiz rahbari.

Bu fikr mintaqamiz davlatlari mustaqillikni qo'lga kiritgandan buyon o'tgan davrda dunyo minbaridan turib aytilgan ilk dadil va qat'iy siyosiy irodali pozitsiya bo'ldi, deyishga har tomonlama haqlimiz.

Shu ma'noda, Markaziy Osiyo davlatlarining ahilikda, hamjihatlikda va birdamlikda rivojlanishiga kirishgani xalqaro miqyosda ham e'tirof etilib, bu mintaqamiz xalqlari uchun yangi bir davr boshlanayotganidan dalolat beradi.

Muxtasar aytganda, Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT minbaridan aytilgan fikrlari va takliflariga dunyo jamoatchiligi hali ko'p bora murojaat etadi, mushohada qiladi. Bunga asoslarimiz ham bor. Zero, bu nutq odamlarning qalbidan, tafakkuridan chuqur joy olganida ham namoyon.

**Mahmudjon BOLTABOYEV,**  
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti rektori, professor.

## MASALALAR DASTLABKI TARZDA CHUQUR TAHLILDAN O'TKAZILDI

Ta'kidlanganidek, Davlat byudjeti to'g'risidagi qonun loyihasini va Byudjetnomani Vazirlar Mahkamasi tomonidan Oliy Majlis palatalariga kiritish muddati aniq belgilanmoqda.

Byudjet jarayonining ochiqligini ta'minlash maqsadida tumanlar va shaharlar hokimliklari jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha ma'lumotlarni o'z rasmiy veb-saytlari, shuningdek, "Ochiq byudjet" axborot portaliga joylashtirib berishi Byudjet kodeksida aks ettirilyapti.

Shuningdek, hujjat bilan O'zbekiston Respublikasiga beg'araz yordam doirasida kelgan tibbiy asbob-uskunalardan pullik xizmatlarni ko'rsatish uchun foydalanish imkonini yaratilmoqda. Bundan tashqari, byudjet tashkilotlariga ijaraga berilgan yer uchastkalaridan soliq undirish va to'lash tartibini, foydalanilmayotgan binolar, ishlab chiqarish maydonlari va yer uchastkalariga nisbatan tegishli soliqlarning oshirilgan stavkalarini qo'llash tartibi bekor qilinmoqda.

So'ngra "Yer to'g'risidagi qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun ham muhokama qilindi.

Ushbu qonun ham olib borilayotgan islohotlarga hamohang bo'lib, o'zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish (servitut) huquqi, yer jirasi bilan bog'liq munosabatlarni va xususiyashtirilgan yer uchastkalariga oid qoidalarni takomillashtirishga qaratilgan qator normalarni o'z ichiga oladi.

Qonunda ijaraga olingan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalari huquq va majburiyatlar bilan birga ijaraga beruvchining roziligi asosida boshqa shaxsga o'tkazilishi (qayta ijaraga berilishi) mumkinligi belgilanmoqda. Shu bilan birga, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan elektron onlayn-auksion orqali olingan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalariga nisbatan huquq va

majburiyatlar boshqa shaxsga ijaraga muddatidan oshmagan muddatga o'tkazilishi (qayta ijaraga berilishi) mumkinligi ko'zda tutilgan.

Senatorlar qonun bilan yerga oid mulkiy va huquqiy munosabatlarda barqarorlikni ta'minlash, ularni muhofaza qilish, yer egalaring mulkiy huquqlarini kafolatlash maqsadida qonun hujjatlaridagi bo'shliqlar bartaraf etilayotganligiga e'tibor qaratishdi.

Xususan, ushbu ko'rib chiqilayotgan qonunda o'zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish huquqi, ya'ni servitut belgilangan yer uchastkasiga bo'lgan huquqlar boshqa shaxsga o'tgan taqdirda ham servitut saqlanib qolinishi, servitut oldi-hadi, hadya, garov yoki ijaraning mustaqil predmeti bo'lishi mumkin emasligi belgilanmoqda.

Servitut belgilanishi yer egasini, yerdan foydalanuvchini, yer uchastkasining ijarachisi va mulkdorini ushbu yer uchastkasiga egalik qilish, undan foydalanish hamda uni tasarruf etish huquqidan mahrum qilmasligi ko'zda tutilyapti.

### Kasbiy faoliyatiga qonunga xilof ravishda to'sqinlik qilishga yo'l qo'yilmaydi

Senatning Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasining majlisida "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi qonunni ko'rib chiqishda pedagoglarning huquq va majburiyatlarini, ular faoliyatining asosiy kafolatlari, pedagoglarning o'z kasbiy faoliyatini yuritishi uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni, ularga munosib ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, o'qituvchining sha'ni va qadr-gimmati, shuningdek, ishchanlik obro'sini himoya qilishni belgilab beruvchi me'yorlarga alohida e'tibor qaratildi.

Ta'kidlanganidek, mazkur qonunda pedagogni har qanday shaklda ma'muriy tarzda majburlashga, ularning kasbiy faoliyatiga qonunga xilof ravishda to'sqinlik qilishga yo'l qo'yilmasligi aniq

belgilangan. Shuningdek, senatorlar yer munosabatlari, farmatsevtika sanoati sohasidagi faoliyatni takomillashtirish, respublikaning Jinoyat va Ma'muriy javobgarlik kodekslariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga qaratilgan qonunlarni ham ko'rib chiqdilar.

### Pedagoglarning jamiyatdagi nufuzi va mavqeyi oshiriladi

Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasida dastlab "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi qonun senatorlar, tegishli vazirlik va idoralar vakillari, mahalliy Kengashlar kotibiyatlari mudirlari hamda soha mutaxassislari diqqat markazida bo'ldi.

Qayd etilganidek, hujjat bilan pedagoglarning huquqlari, majburiyatlari, faoliyatining asosiy kafolatlari, mehnatiga yarasha haq to'lash, rag'batlantirish va ijtimoiy himoya qilish tamoyillari belgilanmoqda.

Mazkur qonun asosida pedagoglarning o'z kasbiy faoliyatini yuritishi uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratiladi. Ularning ijtimoiy himoyasi ta'minlanadi hamda mamlakatimizda pedagogning maqomi tan olinadi. Ushbu hujjat o'qituvchi va muallimlarning jamiyatdagi nufuzi va mavqeyini oshirishga xizmat qiladi.

Muhokama jarayonida qonun normalari bilan birga pedagoglar maqomini oshirish, ularning moddiy ta'minoti darajasini o'stirish yuzasidan qilingan bir qator ahamiyatli ishlarga ham e'tibor qaratildi.

Jumladan, so'nggi yillarda pedagog xodimlarning ish haqi miqdorlari bir necha mara oshirilgani, alohida ustama haqlar joriy etilishi va ta'lim standartlari talablariga muvofiq pedagoglarning ish yuklamalari maqbullashtirilgani ham aytib o'tildi.

Muhokama qilingan masalalar yuzasidan Senat qo'mitalarining tegishli qarorlari qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

## Kuz-qish mavsumi: AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR MUHOKAMASI

Sessiyada deputatlar ijtimoiy soha obyektlari va boshqa toifadagi iste'molchilarga zarur miqdorlarda energetika resurslarini yetkazib berish bo'yicha muntazam ravishda mahallab yuzasidan o'rganishlar olib borish lozimligini qayd etdilar.

Yig'ilishda ta'kidlanganidek, aholi va ijtimoiy soha obyektlarini "yashil" energiya resurslari bilan barqaror ta'minlash masalasiga shaharda ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.

Xususan, ijtimoiy soha va davlat tashkilotlarga 2 940 kVt kichik quvvatdagi qayta tiklanuvchi energiya manbalari o'rnatilishi rejalashtirilgan bo'lib, bugungi kunga qadar 4 776 kVt o'rnatilgan va reja 163 foizga bajarilgan. Shuningdek, maktab-gacha ta'lim tashkilotlari, maktablar hamda aholi xonadonlariga quyosh panellarini o'rnatish ishlari ham olib borilmoqda.

Sessiyada mahalliy Kengash deputatlari muhokama etilgan masalalar yuzasidan o'z munosabatlarini bildirdi. Xususan, xalq deputatlari Navoiy shahar Kengashi deputati Bekzod Ulug'nazarov qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish imkoniyatlarini yaratish, elektr yo'qotishlarni kamaytirish, "temir daftar"ga kiritilgan ehtiyojmand oilalarga mahalliy byudjet parametrlarida nazarda tutilgan mablag'lar hisobidan qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari o'rnatilishini ta'min-

lash, ma'muriy-maishiy bino va inshootlarda, jumladan, aholi mas-sivlari va xonadonlarda muqobil energiya manbalari o'q'llash bo'yicha manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish lozimligini qayd etdi.

Muhokamalarga boy bo'lgan yig'ilishda deputatlar tomonidan berilgan savollarga tegishli rah-barlarning javoblari eshitildi.

Sessiyada Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri N. Ismoilov hamda qay palataning bir qator deputatlari ishtirok etdi.

Kun tartibidagi masalalar bo'yicha xalq deputatlari Navoiy shahar Kengashining tegishli qarorlari qabul qilindi.

Shu kuni Navoiy shahar Kengashi deputatlari, mahalliy partiya tashkilotlari faollari ishtirokida o'tkazilgan seminar-da mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining roli, faolligi va tashabbuskorligini oshirish, bunda ular faoliyatiga yaqindan ko'maklashish, partiya guruhlari faoliyatini yanada jonlantirish, doimiy komissiyalar ishini takomillashtirish masalalari yuzasidan fikrlashtirdi. Shuningdek, davlatimiz rahbarining BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi, unda ilgari surilgan tashabbuslar, "O'zbekiston — 2030" strategiyasi mazmun-mohiyati, unda belgilangan ustuvor vazifalarga alohida o'txatilib o'tildi.

"Xalq so'zi".

### Tabiat

## KORXONANING JOZIBADOR BOG'I

Bir necha oydirki, buxoroliklar hamda viloyatga kelayotgan mehmonlarning O'zbekiston — Turkiya hamkorligi mahsuli bo'lgan "Bukhara-Varek" mas'uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi xorijiy korxonadan qadami uzilmay qoldi. Bu — ushbu korxonada o'xshashi yo'q "Botanika bog'i" barpo etilgani bilan bog'liq.



Issiqxona xo'jaligi sohasida viloyatda eng zabardast tadbirkorlik subyekti sanalgan, "Buxoro — agro" erkin iqtisodiy zonasida faoliyat yuritayotgan bo' korxonaning bog'i jozibadorligi bilan ko'pchilikni o'ziga ohanrabodek tortmoqda.

Buxoro tumanidagi mazkur korxonada mas'ullarining bildirishicha, so'lim go'sha 5 gektar maydonni egallagan. Oynavand dalalarda 50 turdagi gullar, papaya, avokado, banan kabi mevali daraxtlar bor.

Darhaqiqat, ertaklarda tasvirlangan Bog'i erarni eslatuvchi, qishin-yozin yam-yashil bo' maskanda miriqib hordiq chiqarish, musaffo havodan to'yib bahramand bo'lish uchun barcha qulaylik muhayyo etilgan. Ushbu loyiha sharofati bilan korxonada 100 ta yangi ish

o'rni yaratilganini aytmaymizmi?!

— Bog' ta'rifi eshitib, bolajonlarimiz uchun shu maskanga sayohat uyushtirdik, — deydi Romitan tumani "Xosa" mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi "Kichikintoy" nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotining tarbiyachisi Nazira Baqoyeva. — Ko'rib turganingizdek, ular bu yerda rostmanasiga yayrashyapti. Asosiy maqsadimiz bolalarni tabiat go'zalliklaridan bahramand etish-gana emas, balki ularni har bir ginyoh, dov-daraxtni asrab-avaylashga o'rgatishdan iborat.

Nozik did bilan barpo etilgan hovuzlarda suzib yurgan baliqlar, noyob qushlar, sharsharasimon otiyb turgan suvlar maskanga o'zgacha fayz berib turibdi.

**Istam IBROHIMOV**  
("Xalq so'zi").

# PARLAMENT VAKOLATLARI KONSTITUTSIYAMIZGA MUVOFIQLASHTIRILMOQDA

Qonun loyihasiga mas'ul qo'mita — Korruptsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasi a'zosi Sherbek Bo'ronovning qayd etishicha, Oliy Majlis palatalari faoliyatini tartibga soluvchi qonunlarni yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiqlashtirish, shuningdek, zamonaviy talablarga javob beradigan ixcham davlat boshqaruvini shakllantirish maqsadida Qonunchilik palatasining bir guruh deputatlari tomonidan ishlab chiqilgan mazkur qonun loyihasi bilan 13 ta qonun va bitta kodeksga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Tadbirkorlar va ishlabarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida ta'kidlanganidek, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada kuchli parlament, ixcham va mas'uliyatli hukumat, mustaqil va adolati sud tizimini barpo etishga qaratilgan bir qator yangi normalar o'z aksini topdi. Parlament palatalarining vakollari qayta ko'rib chiqilib, Qonunchilik palatasi va Senatning vakolatlari sezilarli darajada kengaytirildi.

Shu nuqtai nazardan, taklif etilayotgan loyihaga ko'ra, Senatning vakolatlari yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiqlashtirilmoqda. Jumladan, Senat a'zolari har bir ma'muriy-hududiy birlikdan 4 nafardan saylanishi, 9 nafari Prezident tomonidan tayinlanishi (jami 65 nafar) belgilanyapti. Doimiy asosda ishlovchi senatorlar soni amaldagi 25 nafar miqdorda saqlab qolinayotir.

Shuningdek, Qonunchilik palatasi qo'mitalariga Hukumat a'zolarining

hisobotlari va davlat organlari rahbarlarining axborotini eshitish tashabbusi bilan chiqish huquqi berilmoqda.

Deputatlarning ta'kidlashicha, ushbu qonun loyihasining qabul qilinishi yangi tahrirdagi Konstitutsiya normalarini so'zsiz amalga oshirishga xizmat qiladi.

Muhokamaralardavomida deputatlar qonun loyihasini yanada takomillashtirish bo'yicha o'z takliflarini berdi.

O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi a'zolari qonun loyihasidagi muhim jihatlarga e'tibor qaratishdi. Jumladan, loyihaga ko'ra, Senatning ayrim vakollari bekor qilinib, Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari sifatida belgilanyapti. Davlat byudjetining ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish va Hisob palatasining hisobotini ko'rib chiqish, Prezidentning taqdimiga binoan Bosh vazir nomzodini ko'rib chiqish va ma'qullash, Bosh vazir, Hukumat a'zolarining hisobotlarini hamda Vazirlar Mahkamasining har yilgi ma'ruzasini eshitish vakolatlari shular jumlasidandir.

Shu bilan birga, Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosarlari soni 7 tadan 2 taga qisqartirilmoqda. Bunda Spikerning o'rinbosarlari fraksiya a'zosi bo'lishi mumkin emasligi hamda lavozimda bo'lish davrida siyosiy partiyadagi a'zolikni to'xtatib turishi belgilanmoqda.

Loyihadagi ushbu normalar fraksiya a'zolarining qizg'in munozaralariga sabab bo'ldi. Ayrim deputatlar fikricha, fraksiya rahbarlarining hozirda Spiker o'rinbosari lavozimida faoliyat yuritishi keyinchalik ham qoldirilishi kerak va bu mas'uliyatni

ta'minlaydi. Qonun tashabbuskorlarining qayd etishicha esa, Spiker o'rinbosarlarining fraksiya a'zosi bo'lishi mumkin emasligi, eng avvalo, ularning xolisligini ta'minlaydi, shu bilan birga, partiyalar, fraksiyalar mustaqilligini kafolatlash, ularning faoliyatini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Yig'ilishda qonun loyihasini jamoatchilik muhokamasiga qo'yish masalasi ham ko'tarildi. Chunki loyihada Qonunchilik palatasiga kiritiladigan qonunchilik takliflarini ko'rib chiqishning muhim tartibi belgilanmoqdaki, bu haqda fuqarolar xabardor bo'lishi, bu bo'yicha o'z takliflarini bildirishi maqsadga muvofiq. Chunonchi, loyihada 100 ming nafardan kam bo'lmagan fuqarolar, Senat, Ombudsman va Markaziy saylov komissiyasi qonunchilik takliflarini Qonunchilik palatasiga kiritishga haqli ekani nazarda tutilyapti. Anglashiladiki, demak, endilikda fuqarolarning o'zlari ham qonun tashabbuskori bo'lishiga huquqiy sharoit yaratilmoqda. Shuningdek, ularning demokratik jarayonlarda faol ishtirok etib, muhim qarorlar qabul qilishda, jamiyatdagi muammolarni o'z vaqtida hal etishda to'g'ridan-to'g'ri qatnashishiga imkon berilayotir.

Mazkur qonun loyihasi "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi, Xalq demokratik partiyasi hamda O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyalarining qo'shma yig'ilishida ham atroficha ko'rib chiqildi.

Ta'kidlab o'tilganidek, ushbu loyiha bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga Oliy Majlis Qonunchilik palatasining va Senatning yangi tahrirdagi

# TURKIY DAVLATLAR KASABA UYUSHMALARI TASHKILOTI TA'SIS ETILDI



Alohida ta'kidlash zarurki, Turkiy davlatlar kasaba uyushmalari tashkilotini ta'sis etishdan ko'zlangan maqsad — Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlar kasaba uyushmalarining sa'y-harakatlarini uyg'unlashtirish, xodimlarning mehnat, kasbiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda boshqa qonuniy huquq va manfaatlarini, kasaba uyushmalari faoliyatining huquq va kafolatlarini himoya qilishda kasaba uyushmalarining o'zaro hamkorligini mustahkamlashdan iboratdir.

Kasabalar uyushmalari Federatsiyasi raisi Qudratilla Rafiqov nomzodini Turkiy davlatlar kasaba uyushmalari tashkiloti prezidentligiga taklif etdi. Ochiq ovoz berish yo'li bilan O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisi Qudratilla Rafiqov bir ovozdan Turkiy davlatlar kasaba uyushmalari tashkiloti prezidenti etib saylandi.

Ozarbayjon kasaba uyushmalari Konfederatsiyasi raisi Sattor Mexbaliyev nomzodi yangi tashkilotning vitse-prezidentligiga bir ovozdan ma'qullandi.

Ta'sis yig'ilishida Turkiy davlatlar kasaba uyushmalari tashkilotining bosh kotibini saylash masalasi ham ko'rib chiqildi. Qozog'iston kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisi Satibaldi Dauletalin bu lavozimga munosib, deb topildi.

Yig'ilish ishtirokchilari tashkilotning 5 kishidan iborat nazorat-taftish komissiyasi a'zolarini ham sayladi. Qirg'iziston kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisining birinchi o'rinbosari O'morbek Arstanbekov tashkilotning nazorat-taftish komissiyasi raisi etib saylandi.

Anjumanda yangi tuzilmaning mehnatkashlar manfaatlarini ta'minlash ishlarini takomillashtirish, mamlakatlararo kasaba uyushmalarining do'stona aloqalarini yanada mustahkamlash va

asosiy vazifalarni amalga oshirishda tajriba almashishlar, yutuqlarni o'rganish va amaliyotga tatbiq etish borasidagi vazifalari ham belgilab olindi.

Konstruktiv va do'stona ruhda o'tgan tadbirda Turkiy davlatlar kasaba uyushmalari hamkorligining barcha jabhasida integratsiyalashuv qardosh xalqlar manfaatlariga mos kelishi ta'kidlandi. O'z navbatida, bandlikni ta'minlash, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami muhofazasi, munosib mehnat sharoitlarini yaratish, milliy va xalqaro mehnat standartlarini hayotga tatbiq etish, ishlovchilarning ma'naviyatini va kadrlar malakasini oshirish, yangilangan ta'lim o'g'ayalarini ilgari surish, ixtisoslashtirilgan o'quv muassasalarida kasaba uyushmalari xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash kabi ustuvor vazifalarni bajarishda bahamjihat ishlash yuzasidan bir to'xtamga kelindi.

Yig'ilishda Turkiy davlatlar kasaba uyushmalari tashkilotining birinchi syezdini shu yil 29-noyabr kuni Turkiyaning Anqara shahrida o'tkazish yuzasidan kelishib olindi.

**Muhabbat O'RMONBEKOVA,**  
O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Matbuot xizmati rahbari.

## Munosabat

### EKOLOGIK MUAMMOLAR HAMJIHATLIKDA BARTARAF QILINADI

Global iqlim o'zgarishi, atrof-muhit ifloslanishi, maishiy va sanoat chiqindilarining tobora ortib borishi, suv resurslari tanqisligi, bioxilma-xillikning yo'qolishi natijasida dunyoda ekologik vaziyat tobora keskinlashib bormoqda.

Bunday sharoitda mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik vaziyatni sog'lomlashtirishga qaratilgan qator qonunlar, qonunosti hujjatlarini, davlat dasturlari qabul qilinishi va ularning ijrosi bo'yicha izchil ishlar olib borilayotgani, bunda keng jamoatchilikning faol qatnashishi beqiyos ahamiyat kasb etayotir.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ham yurtimiz bebaho tabiiy boyliklarini ko'paytirish hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylash, atrof-muhit musafoligini saqlash, fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlashga qaratilgan normalar o'z aksini topdi.

Davlatimiz rahbarining BMT Bosh Assambleyasida 78-sessiyasidagi nutqida dunyoda keskin ekologik vaziyat, xususan, uchta inqiroz, ya'ni iqlim o'zgarishi, bioxilma-xillik yo'qolishi va atrof-muhit ifloslanishi kuchayib borayotganligiga e'tibor qaratilganidan yanada ahamiyatlidir.

Albatta, ushbu masalaga bu darajada katta e'tibor qaratilgan bejiz emas. Chunki keyingi 30 yilda mintaqamizda havo harorati bir yarim darajaga ko'tarildi. Bu — dunyodagi o'tacha isishdan ikki karra ko'p, degani. Oqibatda muhtimil umumiy maydonning qariyb uchdan bir qismi yo'qolib ketdi. Agar ushbu tendensiya saqlanib qolsa, yaqin yigirma yilda mintaqamizdagi ikkita yirik daryo — Amudaryo va Sirdaryo oqimi 15 foizga qisqarishi mumkin. Jon boshiga suv bilan ta'minlanish darajasi 25 foizga, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi esa 40 foizga kamayishi kutilmoqda.

Bosh Assambleyada O'zbekiston bu vaziyatdan kelib chiqqan holda, BMT Bosh Qo'riqining Suv resurslari bo'yicha maxsus vakili lavozimida ta'sis etilishini qo'llab-quvvatlashi ma'lum qilindi. Shuningdek, Markaziy Osiyo suvni tejaydigan texnologiyalar platformasini yaratish jarayonida "Birlashgan Millatlar Tashkiloti — suv resurslari" mexanizmini ishga solib, eng ilg'or texnologiyalarni jalb etish va tatbiq qilish taklif etildi.

Tahillarga ko'ra, 15 yil ichida yurtimizda aholi jon boshiga suv ta'mini 3048 kub metr dan 1589 kub metrga qisqardi. Jahon suv resurslari instituti tomonidan e'lon qilingan suv stressidan aziyat chekayotgan davlatlar reytingida O'zbekiston 164 mamlakat orasida 25-o'rinni egallaydi.

Shu jihatdan, mamlakatimizda suv resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash, qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda suvni tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish hamda ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, sug'oriladigan yerlarning meliorativ ho-

latini yaxshilash bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, oxirgi yillarda suv resurslaridan samarali foydalanish, bu resurslarni boshqarish tizimini takomillashtirish, suv xo'jaligi obyektlarini modernizatsiya qilish va rivojlantirish bo'yicha izchil islohotlar olib borildi.

Agar raqamlarga e'tibor qaratilsa, 2022-yilda respublika bo'yicha jami 398,4 ming gektarda tomchilatib, 31,0 ming gektarda yomg'ir-tilab, 16,3 ming gektarda diskret sug'orish texnologiyalari joriy qilingan. 451,9 ming gektar maydon esa lazer uskunasi yordamida tekislangan. 73,0 ming gektarda egiluvchan quvurlar orqali, 36,0 ming gektarda esa egatga plyonka to'shab sug'orish ishlari amalga oshirildi.

Ushbu texnologiyalar joriy qilingan maydonlarda suvni 40 — 50 foizga, mineral o'g'itlarni 25 — 30 foizga, yonilg'i-moylash materiallarini 30 — 35 foizga kamaytirish, shuningdek, hosildorlikni, jumladan, paxtachilikda 30 foizgacha oshirish imkonini bergan.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasi BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga uyg'un bo'lib, mamlakatimiz o'z zimmasiga olgan barcha majburiyatni to'la va qat'iy bajarilmoqda. Jumladan, strategiyada yurtimizda suvdan oqilona foydalanish madaniyatini va suv ishlatish samaradorligini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Suv ishlatish samaradorligini 25 foizga oshirish, qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishda suv tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan yerlarning umumiy maydonini 2 mln. gektargacha, suv jumladan, tomchilatib sug'orish texnologiyasini 600 ming gektargacha yetkazish bilan bog'liq vazifalarga alohida e'tibor qaratilgan diqqatga sazovor.

Mazkur hujjatda qo'shni davlatlar bilan suv resurslarini integrallashgan holda boshqarish, transchegaraviy suv resurslari va davlatlararo suv xo'jaligi obyektlaridan birgalikda foydalanish masalalarida ikki tarafli manfaatli hamkorlikni faol davom ettirish ham o'rin oldi.

Muxtasar aytganda, bugun oldimizda dolzarb ekologik muammolarga hamjihatlikda yechim topish, global iqlim o'zgarishiga moslashish, bioxilma-xillikni saqlash va atrof-muhit ifloslanishining oldini olishdek muhim vazifalar turibdi. Bu borada biz, deputatlar qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish, parlament nazorati shakllaridan foydalangan holda tegishli hujjatlarida belgilangan vazifalarni ijrosini monitoring qilib boramiz.

**Xayrullo G'AFFOROV,**  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosari.

## Uchrashuv

### O'ZARO TAJRIBA ALMASHISH VA HAMKORLIKNING HUQUQIY ASOSLARINI YARATISH — PIROVARD MAQSAD

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasida Ozarbayjon kasaba uyushmalari Konfederatsiyasi raisi Sattor Mexbaliyev rahbarligidagi delegatsiya vakillari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Tadbirda O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisi Qudratilla Rafiqov ikki mamlakat rahbarlarining olib darajadagi muntazam o'zaro tashriflari, muloqotlari natijasida O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi do'stlik aloqalari yangi bosqichga ko'tarilgani, buning natijasida ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro do'stona hamkorlik ikki davlat taraqqiyotini ta'minlash va xalqlarimiz farovonligini oshirishga salmoqli hissa qo'shayotganini alohida ta'kidlandi.

Aytilganidek, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi va Ozarbayjon kasaba uyushmalari Konfederatsiyasi nafaqat mamlakat miqyosida, balki Xalqaro kasaba uyushmalari harakatida ham alohida o'ringa va nufuzga ega. Ikki mamlakat kasaba uyushmalari mehnatkashlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, munosib mehnat sharoitlarini yaratish kabi yo'nalishlarda davlat hamda ish beruvchilar bilan ijtimoiy hamkorlikda tizimli ishlarni olib bormoqda.

Uchrashuvda O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tashabbusi bilan Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston, Mo'g'uliston va O'zbekiston kasaba uyushmalari qarori asosida Markaziy Osiyo mamlakatlarida kasaba uyushmalari Kengashi tashkil etilgani ham urg'ulandi.

O'z navbatida, Ozarbayjon kasaba uyushmalari Konfederatsiyasi raisi Sattor Mexbaliyev hamkorlikni rivojlantirishning istiqbollarga to'xtaldi. Sokhida o'zaro tajriba almashish borasidagi fikrlarini bayon etdi.

Muloqot davomida O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi hamda Ozarbayjon kasaba uyushmalari Konfederatsiyasi o'rtasida manfaatli hamkorlik to'g'risidagi memorandum imzolandi.

Unda tomonlar o'zaro tenglik va hurmat prinsiplari asosida kasaba uyushmalari a'zolarining mehnat va ijtimoiy-iqtisodiy huquq hamda manfaatlarini munosib himoya qilish borasidagi aloqalarni mustahkamlashni sheriklikning asosiy yo'nalishi sifatida qayd etildi.

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Ijroiya qo'mitasining qaroriga asosan, ikki qardosh xalqlar kasaba uyushmalari o'rtasidagi o'zaro do'stlik aloqalarini mustahkamlashga qo'shgan munosib hissasi uchun Ozarbayjon kasaba uyushmalari Konfederatsiyasi raisi Sattor Mexbaliyev "O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi laureati" unvoni bilan taqdirlandi.

Ozarbayjon kasaba uyushmalari Konfederatsiyasi delegatsiyasi Toshkent shahrining diqqatga sazovor maskanlariga ham tashrif buyurdi. Xususan, Mirobod tumanidagi Haydar Aliyev monumenti poyiga gulchambar qo'yildi hamda "Yangi O'zbekiston bog'i" majmuasi bilan tanishildi.

Shundan so'ng delegatsiya a'zolari O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi faoliyati bilan tanishdi. Bu yerda Ozarbayjon kasaba uyushmalari Konfederatsiyasi raisi Sattor Mexbaliyev Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasining faxriy professori unvoni berildi.

Ozarbayjonlik mehmonlar, shuningdek, O'zbekiston kasaba uyushmalari saroyini borib ko'rdi. Tanishuv jarayonida ular o'zbek san'atining asoschilari va namoyandalari, ularning hayoti hamda ijodi to'g'risida qiziqarli ma'lumotlar bilan tanishtirildi.

"Xalq so'zi".

## MAJBURIY MEHNAT VA BOLALAR MEHNATIDAN FOYDALANISHGA YO'L QO'YILMAYDI

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Malaka oshirish institutida "2023-yilgi paxta yig'im-terimi mavsumida terimchilar uchun shart-sharoit yaratilishi, bolalar mehnati va majburiy mehnatdan foydalanish masalasi yuzasidan milliy monitoringni tashkil etish borasida olib borilayotgan ishlar to'g'risida" brifing o'tkazildi.

### Brifing

Ta'kidlanganidek, Prezidentimizning qat'iy irodasi tufayli so'nggi yillarda mamlakatimizda bolalar mehnati hamda majburiy mehnatga butunlay barham berish borasida katta natijalarga erishildi. Shu maqsadlarda qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, mavjudlari qayta ko'rib chiqildi. Buning samarasi o'laroq, yurtimizda bolalar mehnati va majburiy mehnatga barham berildi.

Brifingda Odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish milliy komissiyasi va Ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha respublika uch tomonlama komissiyasining majlis bayonlari, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Ijroiya qo'mitasi qarori bilan tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasini va t-

siyalari asosida joriy yilning 26-sentabridan 31-oktabrigacha milliy monitoring o'tkazish rejalashtirilgan haqida batafsil ma'lumot berildi.

Monitoringni o'tkazishdan asosiy maqsad paxta yig'im-terimi ishlarida voyaga yetmagan shaxslar, o'quvchi va talabalar, byudjet hamda nobyudjet tashkilotlari xodimlarining majburiy mehnatdan foydalanishiga yo'l qo'yilmassligi yuzasidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, mavsumda terimchilar uchun dam olish va mehnat sharoitlari yaratilganini baholash, qo'lda terilgan har bir kilogramm paxta xomashyosi uchun adolati mehnat haqi to'lanishini, shuningdek, boshqa muhim jihatlarini nazorat qilishdan iboratdir, — deydi O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisining o'rinbosari Baxtiyor Mahmadiyev.

Ushbu monitoring davomida kamchiliklar aniqlansa, ularni joyida bartaraf etish choralarini ko'riladi va monitoring yuzasidan O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi hamda Odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish milliy komissiyasiga muntazam axborot berib boriladi.

Tadbirda qayd etilganidek, milliy monitoringni sifatli o'tkazish maqsadida uning uslubiyotini takomillashtirish, "Monitoring guruhlarining joylarda harakatlanish ketma-ketligi", "Monitoringni intervyu olish savolnomasi", "Paxta yig'im-terimi ishtirokchilari uchun yaratilgan shart-sharoitlarni baholash bo'yicha savolnoma" va axborot berish shakllari ishlab chiqilib, monitoring guruhlariga taqdim etilgan.

Milliy monitoring jarayonida paxta terayotgan voyaga yetmagan shaxslar, shuningdek, majburiy mehnatdan foydalanish holatlarini aniqlangan taqdirda kasaba uyushma-

larining inspektori tomonidan vaziyat o'rganilib, dalolatnoma tuziladi va ularni o'quv dargohiga yoki uyiga, ish joylariga qaytarish choralarini ko'riladi. Shu bilan birga, hududiy qayta aloqa mexanizmi vakillariga ham xabar beriladi. Aybdor shaxslarga nisbatan chora ko'rish uchun mehnat inspeksiyasiga yuboriladi.

Aytilganidek, xodimlarning mehnat huquqlari buzilishining oldini olishga qaratilgan qayta aloqa mexanizmi O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tizimida tashkil etilgan bo'lib, mavsum davomida uzluksiz ravishda kecha-yu kunduz ishlaydi. Buning uchun Federatsiya yuridik klinikasi va uning hududlardagi filiallarida kasaba uyushmalari vakillarining doimiy navbatchiligi yo'lga qo'yildi.

Milliy monitoring davrida o'rganish natijalarini oshkor etmaslik tamoyiliga amal qilinib, uning yakunlari to'g'risida dekabr oyida o'tkaziladigan davra suhbatida batafsil ma'lumot beriladi.

**Rahim SHERQULOV**  
("Xalq so'zi").

## "BIZ BIRGAMIZ" IJTIMOIY LOYIHASI

Shu yilning 23-24-sentabr kunlari Samarqandda nogironligi bo'lgan va jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar tomonidan tayyorlangan mahsulotlarning V savdo yarmarkasi o'tkazildi.

### Yarmarka

Adliya vazirligi tomonidan O'zbekiston nogironlar jamoatlariga hamkorlikda tashkil etilgan ushbu tadbirda mamlakatimizning barcha viloyatidan kelgan o'zgarlar parvarishiga muhtoj hamda turmushda qiyalayotgan nogironligi bo'lgan bolalar tayyorlangan mahsulotlar sotuvga qo'yildi.

Ta'kidlash joizki, "Biz birgamiz" ijtimoiy loyihasi doirasidagi mazkur xayriya tadbiri minglab ko'ngillarni xushnud qilishga hissa qo'shib kelmoqda. Ijtimoiy loyihadan ko'zlangan maqsad — nogironligi bo'lgan shaxslar o'z uyularida tayyorlangan mahsulotlar sotuvda (realizatsiya) yordamlashish, ularning yashashga ishtiroqini, hunarga hamda o'z kasbiga

bo'lgan qiziqishini yanada oshirishdan iboratdir.

Asosiysi, loyiha o'z samarasini bermoqda. Masalan, bu yil o'z uyida turli buyumlar tayyorlash bilan shug'ullanuvchi imkoniyati cheklangan, nogironligi bo'lgan 70 nafar shaxs o'z mahsulotlari bilan qatnashib, 388 million so'mlik savdoni amalga oshirdi.

**Abdulaziz YO'LDOSHEV**  
("Xalq so'zi").

## YAPONIYANING NAGOYA SHAHRIDA O'ZBEKISTONNING FAXRIY KONSULLIGI OCHILDI

O'zbekiston va Yaponiya o'rtasida do'stlik aloqalarini rivojlantirish, ikki tomonlama iqtisodiy, madaniy-gumanitar aloqalar ko'lamini yanada kengaytirish hamda Aichi prefekturasida yashayotgan mamlakatimiz fuqarolarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida Nagoya shahrida O'zbekistonning faxriy konsulligi ochildi.

### Biz va jahon

O'zbekistonning Tokiodagi diplomatiya vakolatxonasi ma'lumotiga ko'ra, shu yil 19-sentabr kuni bo'lib o'tgan yangi faxriy konsullikning ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasining Nagoya shahridagi faxriy konsuli etib tayinlangan "IM Corporation" kompaniyasi hamda "Nagoya — O'zbekiston" do'stlik ittisodiy maslahatchisi Xiroyuki Itoga tegishli konsullik patenti tantanali topshirildi.

Marosimda mamlakat parlamenti, vazirligi, Aichi prefekturasida, Nagoya shahri ma'muriyati va deputatlari, Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA), Yaponiya tashqi savdo tashkiloti

(JETRO), Nagoya savdo-sanoat palatasi, qator yirik kompaniyalar, universitetlar, jamoatchilik tashkilotlari va ushbu shaharda joylashgan diplomatiya korpusi vakillari hamda vatandoshlarimiz ishtirok etdi.

Tadbirda so'zga chiqqan Yaponiya tomoni vakillari yangi tashkil qilingan Nagoya shahridagi O'zbekistonning faxriy konsulligi mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil dekabr oyida Nagoya shahriga tashrifining amaliy natijalaridan biri bo'lganini qayd etdi. Shuningdek, O'zbekistonning Aichi prefekturasida va Nagoya shahri bilan

do'stona aloqalarini rivojlantirish va ikki tomonlama iqtisodiy, savdo, madaniy, ilmiy-texnikaviy, migratsiya va konsullik aloqalarini chuqurlashtirishga ko'maklashish, xalq diplomatiyasi hamkorligi, fuqarolar o'rtasidagi do'stlik rishtalarini mustahkamlash, Aichi prefekturasida tahsil olayotgan va kompaniyalarda faoliyat olib borayotgan O'zbekiston fuqarolarining huquqlarini himoya qilishda katta o'rin tutishi alohida ta'kidlandi.

Jumladan, Yaponiya parlamenti quyi palatasi Qonunchilik va sud masalalari qo'mitasi raisi Tadaxiko Ito o'zi yashaydigan shaharda O'zbekistonning faxriy konsulligi ochilishidan g'oyat mamnunligini ma'lum qildi. U O'zbekiston Prezidentining 2019-yilda Nagoya universitetiga tashrif va unga ushbu universitetning faxriy doktori unvoni berilishi ikki tomonlama ta'lim, iqtisodiy va madaniy aloqalar rivojining garovi ekanligini qayd etdi.

Qo'mita raisi Aichi prefekturasida istiqomat qilayotgan 500 nafardan ortiq vatandoshlarimiz va yapon turistlarini O'zbekistonga keng jalb qilish maqsadida faxriy konsullik bilan birgalikda Nagoya — Toshkent havo qatnovlarini tiklash va charter qatnovlarini ishlab chiqishga ehtiyoj katta ekanligini aytdi.

Yaponiya parlamenti quyi palatasi deputati, "Yaponiya — O'zbekiston" parlament ligasi a'zosi, sobiq iqtisodiyot va sanoat vaziri o'rinbosari Yasumasa Nagasaka hududlararo hamkorlik va do'stlik aloqalarini rivojlantirish maqsadida yangi konsullik faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashini hamda O'zbekiston bilan strategik hamkorlikni rivojlantirish uchun yordam ko'rsatishga tayyor ekanligini ma'lum qildi. U Yaponiya parlamenti va hukumati O'zbekiston bilan strategik hamkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashda ko'mak ko'rsatishini ta'kidladi.

Nagoya shahri meri Takashi Kavamura O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bilan 2019-yil dekabrda uchrashuvini iliq xotirlar ekan, Nagoya — O'zbekiston do'stlik aloqalari faol rivojlanayotganidan, ikki davlat fuqarolari o'rtasidagi do'stlik rishtalari mustahkamlanayotganini hamda qo'shma delegatsiyalar, iqtisodiy va madaniy missiyalar, maktab o'quvchilari va san'atkorlar almashuvi yo'lga qo'yilganidan mamnuniyat izhor etdi. U O'zbekistonning Nagoya shahridagi faxriy konsulligi bilan hamkorlikda ikki tomonlama hamkorlikni kengaytirishga yo'naltirilgan sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlashini alohida ta'kidladi.

Eslatib o'tamiz: hozirgi kunlarda O'zbekistonning turli xorijiy mamlakatlarda 40 ga yaqin faxriy konsulliklari faoliyat ko'rsatmoqda.

"Dunyo" AA.  
Nagoya

# BARCHA ORZU-NIYAT VA INTILISHLARIMIZ - XALQIMIZ UCHUN

Sangardak — toshlar bilan o'ralgan manzil, degani. Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanida shunday nomdagi xushmanzara qishloq bor. Bu yerdagi Sangardak sharsharasi dengiz sathidan 2 ming metr balandlikdan otilib turgan tabiatning noyob mo'jzasidir.

## Bunyodkorlik



Albatta, "sharshara" so'zi tilga olinganda, ko'pchilik maktab darsligidagi o'sha mashhur Niagara sharsharasini xayoldan o'tkazadi. Shu o'rinda "O'ldingdan oqgan suvning qadri yo'q", degan hikmatli naqni qo'llash ayni muddao, deb o'ylayman.

Nega? Chunki Sangardak sharsharasining Niagaradan farq qiladigan bir qator o'ziga xos xususiyatlari bor. Ya'ni: birinchidan, Niagara sharsharasining balandligi 57 metr bo'lsa, Sangardak sharsharasi 150 metrdan ziyod balandlikdan qoyalarga urilib oqadi; ikkinchidan, Niagara sharsharasini shu nomdagi daryo shakllantirgan bo'lsa, aksincha, Sangardak tog' daryosidan emas, balki o'g'lar ichidagi yer osti daryolaridan suv o'ladi;

uchinchidan, Niagara sharsharasi XVII asrda fransuz mustamlakachilari tomonidan kashf etilgan bo'lsa, Sangardak sharsharasi XVI asrdan beri xalqimizga va xorijiy mehmonlarga ham ma'lum-u mashhur.

Quyovarlisi, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 17-18-oktabr kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifi chog'ida Sariosiyo tumanidagi dunyoga mashhur Sangardak sharsharasiga yaqin hududda barcha qulaylikka ega zamonaviy sanatoriya barpo etish yuzasidan zarur vazifalarni belgilab bergandi. Mazkur topshiriq asosida osmon-par tog'lar qo'nyida zamonaviy va milliy me'moriy yechimlar asosida muhtasham sog'lomlashtirish maskani — 200 o'rinli "Sangardak" sanatoriysi qad rostlandi.

Shu yilning 16-sentabrida davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, nuroniylar va mahalla faollari, ustoz hamda murabbiylar, tanqilij ijodkorlar va yoshlar bilan birgalikda Surxon vohasi, Sariosiyo tumanida joylashgan, betakror tabiat bag'ridagi

"Sangardak" sihatgohining tantanali ochilish marosimida qatnashdiki.

Jahon andozalariga mos darajada barpo etilgan mazkur sog'lomlashtirish maskanini xalqimiz Prezidentimizdan munosib tuhfa sifatida qabul qildi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu ko'rkam sihatgoh, ta'bir joiz bo'lsa, Mustaqilligimizning 32 yilligiga atalgan o'ziga xos bayram sovg'asidir.

Xalqimizning maroqli dam olishi, sog'lig'ini tiklashi uchun barcha sharoit yaratilgan mazkur muhtasham inshoot mamlakatimizda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida amalga oshirilayotgan islohotlarning yana bir hayotiy ifodasi bo'ldi.

Darhaqiqat, Prezidentimiz tomonidan yangi O'zbekistonda inson huquqi va manfaatlarini har tomonlama ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yangi tahrirdagi Asosiy Qonunimizning 1-moddasida "O'zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat" degan norma belgilangan bu borada mustahkam huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Yangi O'zbekistonning yangi inshooti bo'lgan "Sangardak" sanatoriysining bunyod etilishi ham ana shu ezuq yo'ldagi muhim loyihalardan biridir. Bu ulug'vor bunyodkorlik samarasini timsolida, bir tomondan, davlatimiz tom ma'noda ijtimoiy davlat maqomiga munosibligi ta'kidlanayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, jamiyatimizda inson qadri va manfaatlari hamma narsadan ustunligi amalda namoyon etilmoqda.

Yaqinda tasdiqlangan "O'zbekiston — 2030" strategiyasida jami 100 ta maqsad, 369 ta chora-tadbir, 190 ta vazifa, 306 ta maqsadli ko'rsatkich bajarilishi va bu borada 118 ta normativ-huquqiy hujjat

ishlab chiqilishi ko'zda tutilgan. Ushbu dasturlamal hujjatning ijrosidan yurtimizdagi har bir insonga qulay imkoniyat, muayyan yengilliklar, moddiy va ma'naviy manfaat yetsa, o'z navbatida, har qaysi oila hamda xonadon obodlik, to'kinlik, fayz va baraka topadi.

Aslida ham, so'nggi yillarda aholining munosib turmush kechirishi, salomatligini tiklashi va dam olishi uchun zarur sharoitlarni yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Shuning uchun joylarda yangidan-yangi sihatgohlar barpo etilmoqda, mavjud sanatoriylarning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanib, qabul quvvati oshirilmoqda, mehnatkashlar

• majmuaga 4 kilometr masofadagi tog'lar qo'nyidan maxsus quvurlar orqali ichimlik suvi tortib kelingan;

• sog'lomlashtirish maskani tashxislash va davolash, salomatlikni tiklash va turli kasalliklarning oldini olishga xizmat qiluvchi eng so'nggi rusumdagi zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar, yuqori sifatlil mebellar bilan jihozlangan;

• bu yerda dam oluvchilar uchun fizioterapiya va suv bilan davolash bo'limlari, shifobaxsh tuz g'ori, laboratoriya, jismoniy tarbiya, balchiq va parafin bilan davolash, gidroeroionizatsiya xonalari, yopiq suzish havzasi, turk hammomi xizmatlaridan foydalanish sharoitlari yaratilgan;

• sanatoriya kutubxona, madaniyat saroyi, tennis xonalari, mazali va damondorlarga yoqimlilar tayyorlanadigan oshxonalar, bolalar o'yingohi ham bunyod etilgan.

Mutasaddilar qayd etishicha, yangi sanatoriya yaratilgan shart-sharoitlar har yili 6 ming 400 nafar fuqaroning salomatligini tiklash va sog'lomlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, sog'lomlashtirish maskanida 150 dan ortiq kishilar ish bilan ta'minlanadi. Tantanal marosimida sanatoriya tasarrufiga avtobus va yengil avtomashina topshirilganiga ham bevosita guvoh bo'ldik.


Eng asosiysi, "Sangardak" sanatoriysi joylashgan hudud juda bahavo va salqin. Uning to'rt tarafidan Hisor tog' tizmalari, sharqirab oqayotgan soylar xuddi kaftdagidek ko'rinib turadi. Bunday bebaho tabiat ne'matlari dam oluvchilarga xush kayfiyat bag'ishlab, salomatliklarini mustahkamlashda muhim omil bo'lishi tayin.

Tarixdan yaxshi ma'lumki, ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy temuriy zoda podshoh sulton Husayn Boyqoro bilan maslahatlashgan holda, ulkan qurilishlar va ko'plab savobli amallarning boshida turgan. Donishmand mutafakkir bobomiz sa'y-harakatlari bilan bunyod etilgan "Ilosiya", "Shifoia" madrasalari, "Xalosiya", "Jamoatxona" va "Ziyoratgoh" honaqlari uzoq yillar davomida xalq xizmatida bo'lgan.

Shu nuqtai nazardan, muhtasham va mo'jizaviy "Sangardak" sanatoriysi bunyod etishga hissa qo'shgan barcha yurtdoshlarimiz ulug' bobolarimiz kabi bemsil savobga doxil bo'ldi. Prezidentimiz ta'бири bilan aytganda, "Barcha orzu-niyat va intilishlarimiz, mashaqqatli mehnatimiz, kechani-kecha, kunduzni-kunduz demasdan amalga oshirayotgan sa'y-harakatlarimiz — hamma-hammasi bizga katta umid bilan boqib turgan xalqimiz uchundir".

Akmal SAIDOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o'rinbosari, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktori.

# SPORTCHILARIMIZ VATAN SHARAFINI YUKSALTIRMOQDA



Musobaqadagi dastlabki medalni akademik eshkak eshish bo'yicha ayollar o'rtasida yengil vazn toifasidagi juftlik dasturida qatnashgan Luizaxon Islomova hamda Malika Tagmatova qo'lga kiritdi. Hamyurtlarimiz murosasiz kechgan final dasturida marra chizig'ini ikkinchi bo'lib kesib o'tishdi va kumush medal bilan taqdirlandi.

O'zbekiston vakillari Osiyo o'yinlaridagi ikkinchi medalni ham ushbu sport turida qo'lga kiritdi. Akademik eshkak eshish bo'yicha erkaklar o'rtasida yengil vaznli sportchilar bahsida Shahzod Nurmatov hamda Sobirjon Safaraliyev bronza medaliga sazovor bo'ldi.

E'tiborli jihati, delegatsiyamiz hisobiga navbatdagi medalni ham akademik eshkak eshish bahslarida ishtirok etayotgan sportchilarimiz keltirishdi. Xususan, M2 dasturida Shahzod Xolmirzayev hamda Mehrojbek Mamatqulov juftligi kumush medalni qo'lga kiritdi.

Akademik eshkak eshishning M2 dasturida qatnashgan Shehroz O'akimov hamda Dilshodjon Xudoyberdiyev ham navbatdagi kumush medalni o'z hisobiga yozib qo'ydi. Shuningdek, mazkur sport turining yakkalik bahslarida yurtimiz sharafini himoya qilgan Anna Prakaten oltin medalga sazovor bo'ldi. Yana bir oltin medal ushbu sport turining M4 dasturi bo'yicha Shehroz O'akimov, Davr Davronov, Dilshod Xudoyberdiyev va Alisher Turdiyev kvarteti tomonidan taqdim etildi.

O'zbekiston delegatsiyasi g'aznasiga yana bir kumush medalni akademik eshkak eshish bo'yicha M4x dasturida Shahzod Nurmatov, Shahzod Xolmirzayev, Mehrojbek Mamatqulov va Sobirjon Safaraliyev kvarteti qo'shib qo'ydi.

Dzyudo bahslarida Gulnoza Matniyozova o'z vazn toifasida bronza medaliga sazovor bo'ldi. Gulnoza o'tgan Osiyo o'yinlarida ham sovrindorlar safidan joy olgandi.

Shu tariqa O'zbekiston terma jamoasi Osiyo o'yinlarida 14 ta (4 ta oltin, 4 ta kumush va 6 ta bronza) medal jang'arib, umumjamoa hisobida 4-o'rinda bormoqda.

Bellashuvlarda sportchilarimiz Parij Olimpiadasi yo'llanmalariga sazovor bo'layotgani ham e'tiborga molik. Jumladan, zamonaviy beshkurash bo'yicha ayollar o'rtasidagi yakkalik bahslarida ishtirok etgan "Tokio — 2020" Olimpiadasi qatnashchisi Alise Faxrudinova musobaqani 1327 ochko bilan 7-o'rinda yakunladi va bu natija unga Parij Olimpiadasi yo'llanmasini taqdim qildi.

Hasan PAYDOYEV ("Xalq so'zi"), Xanchjou, Xitoy Muallif olgan suratlar.



Sportchimiz o'z vazn toifasida bronza medali bilan taqdirlandi. Eslatib o'tamiz, hamyurtimiz o'tgan Osiyo o'yinlarida kumush medalni qo'lga kiritgan edi.

Taekwondo WT bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi aralash jamoaviy dasturda bronza medalini qo'lga kiritdi. Yarim finalda Janubiy Koreyaga qarshi bahs olib borgan sportchilarimiz 47:48 hisobida imkoniyatni boy berib qo'ydi. Terma jamoa tarkibida Shuhrat Salayev, Jasur Jaysunov, Ozoda Sobirjonova, Svetlana Osipova yurtimiz sharafini himoya qildi.

Dzyudo bahslarida Gulnoza Matniyozova o'z vazn toifasida bronza medaliga sazovor bo'ldi. Gulnoza o'tgan Osiyo o'yinlarida ham sovrindorlar safidan joy olgandi.

Shu tariqa O'zbekiston terma jamoasi Osiyo o'yinlarida 14 ta (4 ta oltin, 4 ta kumush va 6 ta bronza) medal jang'arib, umumjamoa hisobida 4-o'rinda bormoqda.

Bellashuvlarda sportchilarimiz Parij Olimpiadasi yo'llanmalariga sazovor bo'layotgani ham e'tiborga molik. Jumladan, zamonaviy beshkurash bo'yicha ayollar o'rtasidagi yakkalik bahslarida ishtirok etgan "Tokio — 2020" Olimpiadasi qatnashchisi Alise Faxrudinova musobaqani 1327 ochko bilan 7-o'rinda yakunladi va bu natija unga Parij Olimpiadasi yo'llanmasini taqdim qildi.

Hasan PAYDOYEV ("Xalq so'zi"), Xanchjou, Xitoy Muallif olgan suratlar.

# BARQAROR TARAQQIYOT VA FAROVON HAYOT KAFOLATI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi dunyo afkor ommasining katta qiziqishiga sabab bo'ldi. Bu bejiz emas. Zero, jahonning eng yuksak minbaridan yangrangan ushbu nutqda xalqaro va mintaqaviy taraqqiyohtning dolzarb muammolari bilan ularni bartaraf etishga qaratilgan istiqbolli taklif va tashabbuslar, ilgari no'yobga chiqarishda O'zbekistonning qat'iy intilishi va sa'y-harakatlariga alohida e'tibor qaratildi.

## Nuqtai nazar

Davlatimiz rahbari ayni paytda mamlakatimizda BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga uyg'un ravishda olib borilayotgan islohotlarga urg'u berdi. O'zbekiston iqtisodiyoti, global tahdidlarga qaramasdan, barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etayotganini, so'ngi olti yilda yalpi ichki mahsulot hajmi bir yarim martadan ortiq ko'payganini qayd etdi. Bizning bosh maqsadimiz 2030-yilga qadar bu ko'rsatkichni yana 2 barabarga oshirish ekanligi alohida ta'kidlandi.

Yurtboshimiz e'tirof etganidek, iqtisodiyotimizni liberallashtirish yo'lidagi yana bir ustuvor vazifamiz — yaqin orada Jahon savdo tashkilotiga to'laonli a'zo bo'lishdir.

Xalqimizning turmush darajasini oshirishga qaratilgan siyosat tufayli mamlakatimizda 2017-yildan buyon kambag'allik ikki barobar kamaydi. Biz 2030-yilgacha uni 7 foizga tushirishni reja qilganmiz. Aholini ichimlik suvi, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa ijtimoiy xizmatlar bilan ta'minlash ko'lamini bir necha bor oshirish belgilangan.

Bunday asosli fakt va dalillar, istiqbolli rejarlar har birimizga cheksiz faxr-iftixor bag'ishlaydi. Ayni paytda bunday yuksak natijalarga erishish uchun olib borilayotgan chora-tadbirlar, tun-u kun zahmat chekib qilinayotgan mehnatlarni qadrlashga, ularga kamarbasta bo'lishga undaydi.

Darhaqiqat, yurtimizda olib borilayotgan ishlarni tahlil qilsak, ko'z

o'ngimizda yorqin, nurli bir manzara hosil bo'ladi. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilayotganiga yana bir bor amin bo'lamiz.

Bugun qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha institutsional va tarkibiy islohotlar davom ettirilmoqda. Xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeyini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etishga ahamiyat berilyapti.

Amalga oshirilayotgan islohotlar yuksak samara berayotganini makroiqtisodiy ko'rsatkichlar orqali ko'rish mumkin. Dastlabki baholashga ko'ra, joriy yilning yanvar — iyun oylarida O'zbekistonning yalpi ichki mahsuloti hajmi joriy narxlarda 469 619,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan 5,6 foizga o'sdi. YIM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, sanoat, qurilish, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, tashish hamda saqlash, axborot va aloqa xizmatlari va boshqa xizmat tarmoqlari ijobiy hissa qo'shdi.

Shuningdek, yanvar — iyun oylarida aholi jon boshiga YIM joriy narxlarda 13 mln. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan 3,4 foizga o'sdi. Prezidentimizning "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirish orqali yetakchi tarmoqlar va iqtisodiyotni yanada liberallashtirish hamda transformatsiya jarayonlarini yakunlashga alohida urg'u berilgan.

Yurtimizda sanoat sohasiga qaratilayotgan yuksak e'tibor natijasida misli ko'rilmagan yutuqlarga erishilmoqda. Jumladan, 69,6 mingdan ziyod sanoat korxonalar tomonidan shu yilning yanvar — iyun oylarida 293,6 trln. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilib, o'tgan yilning tegishli davridagiga nisbatan fizik hajm indeks 5,6 foizga oshdi.

Shuningdek, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng yuqori ulush qayta ishlash sanoati hissasiga (84,0 foiz) to'g'ri keldi, shu bilan bir qatorda, iqtisodiy islohotlarni jadallashirish, investitsiyaviy faoliyatga urg'u berish natijasida tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlab sanoatining ulushi (9,0 foiz) ham o'sish borayotganini ta'kidlash lozim.

Faol investitsiyaviy siyosat yuritilishi hamda sohaga yangi innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi natijasida o'tgan yilning I yarim yilligiga nisbatan elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoatida 9,9 foizga, qayta ishlash sanoatida 6,3 foizga o'sishga erishildi. Ushbu ijobiy o'sish sur'atlariga erishishda shu yilning I yarim yilligida 7,9 mingdan ortiq yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarining o'rmini ham alohida ta'kidlash joiz.

Samarali islohotlar natijasida O'zbekistonda bajarilgan qurilish ishlari

hajmi barqaror o'sishda davom etmoqda. Yanvar — iyun oylarida 68,1 trln. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, mazkur ko'rsatkich o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan 4,8 foiz yuqoridir.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ham muttasil o'sib bormoqda. Ular, asosan, shaharlarda, qolaversa, uzoq qishloq va ovullarda faoliyat yuritaypti.

Keng ko'lamli bajarilayotgan qurilish faoliyati natijasida joriy davrda umumiy maydoni 6 599,0 ming kv.m. bo'lgan 30,6 ming xonadonga mo'ljallangan turarjoylar hamda deyarli 1,4 ming km. uzunlikdagi savdo tarmoqlari ishga tushirildi.

Olib borilayotgan islohotlar natijasida boshqa tarmoqlar qatorida bu sohada ham xususiy sektorning ulushi yuqori ko'rsatkichga ega bo'lmoqda. Jumladan, yanvar — iyun oylarida amalga oshirilgan qurilish ishlarning 97,1 foizi nodavlat mulkchilikdagi korxonalar tomonidan bajarilgan.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish sohasining ulushini oshirish, joylardatarmoqning mavjudimkoniyatlaridan to'liq foydalanish natijasida joriy yilning yanvar — iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 212,8 trln. so'mga yetdi va o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan 12,3 foiz o'sishga erishildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga moliyaviy xizmatlar, transport, aloqa va axborotlashtirish, savdo, ta'lim sohasidagi xizmatlarning o'sishi ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Moliya sektori yangi mahsulot va xizmatlarni joriy etish hamda texnologiyalarga sarmoya kiritish hisobiga jadal rivojlanmoqda. 2023-yilning tahlil qilinayotgan davrida moliyaviy xizmatlar hajmi 50,0 trln. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan o'sish sur'ati 122,7 foizni tashkil etdi.

Davlat tomonidan agrar sohani qo'llab-quvvatlash, iqtisodiy manfaatdorligini

oshirish bo'yicha amalga oshirilgan tizimli tadbirlar natijasida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, shu yil yanvar — iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida umumiy ishlab chiqarish hajmi 154,5 trln. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan 3,8 foizga oshdi.

Respublikada boshqoqli don ekinlaridan yuqori hosil yetishtirishni rag'batlantirish tizimi joriy etilgani o'zining ulkan ijobiy samarasini bermoqda. Jumladan, tahlil qilinayotgan davrda respublika bo'yicha jami 5 443,4 ming tonna don va dukkakli don ekinlari yetishtirildi.

Mamlakatimiz hududlarida meva-sabzavot, poliz, kartoshka va uzum mahsulotlarini ko'paytirish, agrotexnik tadbirlarni o'z muddatida o'tkazish, ulardan yuqori sifatlil, eksportbop mahsulot yetishtirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, bog'dorchilik va uzumchilikni rivojlantirish maqsadida zamonaviy texnologiyalar asosida intensiv mevali bog' va tokzorlarni barpo etish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilyapti. Natijada yurtimizda 1 670,9 ming tona kartoshka, 3 300,2 ming tona sabzavot, 243,2 ming tona poliz, 1 020,0 ming tona meva hamda 49,4 ming tona uzum yetishtirildi.

Joriy davrda respublika bo'yicha tirik vaznda jami go'sht ishlab chiqarish hajmi 1 267,5 ming tonnani, sog'ib olingan sut 5 288,3 ming tona, tuxum 3 571,2 mln. dona, qirib olingan jun 20,8 ming tona, qorako'l teri 961,9 ming dona hamda

Bu raqamlar, faktlar mamlakatimizdagi barqaror taraqqiyot va farovon hayot ko'zgusidir. Ularning zamirida har tomonlama chuqur o'ylab, samarali amalga oshirilayotgan siyosat yotibdi. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish, iqtisodiyotda chuqur tizimli investitsiyaviy islohotlarni amalga oshirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, yangilash hamda tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan tub islohotlar bunga asos bo'lmoqda.

Bahodir BEGALOV, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**Xalq so'zi**  
**Narodnoe slovo**

MUASSISLAR:  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

**Bosh muharrir O'tkir RAHMAT**

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 941.33 088 nuxxada bosildi. Hajmi — 2 taqab. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuktak olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:  
Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun ohunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlil chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

**MANZILIMIZ:**  
**100066,**  
**Toshkent shahri,**  
**Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.**  
Navbatchi muharrir N. Ostonov.  
Musahhih Sh. Mashrabboev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonalar manzili:  
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 21.30 Topshirildi — 23.40

1 2 3 4 5 6